



## EDUCATIONAL INSTITUTIONS-A PRIMARY FACTOR IN THE MORAL EDUCATION OF THE INDIVIDUAL

**Makhfuza Rakhmonova**

*associate professor, candidate of Pedagogical Sciences*

*Karshi State University*

*Uzbekistan, Karshi*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** education, system, of education, ethical-esthic training, school, educational establishments, the law about education, the national program to, prepare personnel, complete person.

**Received:** 16.11.24

**Accepted:** 18.11.24

**Published:** 20.11.24

**Abstract:** In this article, the educational importance of education training school, educational establishments and means-measures according to renew the process of attribute and methodical classes in Uzbekistan, as well as training the best, spiritually complete person's means and criteria are analysed.

### ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИ – ШАХС АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА БИРЛАМЧИ ОМИЛ

**Maxfuza Raxmonova**

*dotsent, pedagogika fanlari nomzodi*

*Qarshi davlat universiteti*

*O'zbekiston, Qarshi*

### МАҚОЛА ҲАҚИДА

**Kalit so'zlar:** ta'lim, ta'lim tizimi, tarbiya, axloqiy-estetik tarbiya, maktab, ta'lim muassasalari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim, tabiya, maktab, ta'lim muassasalarining tarbiyaviy ahamiyati va O'zbekistonda o'quv jarayonini sifat va metodik jihatdan yangilash bo'yicha amalga oshirilgan chora tadbirlar, shuningdek yuksak ma'naviyatli komil insonni tarbiyalash vosita va kriteriyalari atroflicha tahlil qilingan.

### УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ-ПЕРВИЧНЫЙ ФАКТОР ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ЛИЧНОСТИ

**Махфуза Рахмонова**

*доцент, кандидат педагогических наук*

*Каришинский государственный университет*

*Узбекистан, Кариши*

## О СТАТЬЕ

<p><b>Ключевые слова:</b> образование, система образования, эстетического обучения, образовательных учреждений национальной программы персонал.</p>	<p><b>Аннотация:</b> В этой статье образовательная важность образовательной школы обучения, образовательные учреждения и меры средств согласно возобновляют процесс признака и методических классов в Узбекистане, а также обучения лучшее, духовно заканчивают средства человека, и критерии проанализированы.</p>
---	---

## KIRISH

Inson ma'naviyatini shakllantirish va kamol toptirishda ta'limning roli benihoya kattadir. Yoshlarga axloqiy va estetik qadriyatlarini singdirishda ta'lim muassasalari xususan o'rta maktablarning o'rni muhim. Maktabdagi asosiy faol subyektlar – o'qituvchilardir. Ta'lim tizimi barkamol yoshlarni tarbiyalovchi asosiy vosita. Unda o'tilayotgan tabiiy va gumanitar fanlarda axloqiy-estetik bilimlarning xalq hayot tarzining muhim ifodasi bo'lgan xalq donishmandligi merosi bilan boyitilsa, uning tarbiyaviy samaradorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, yoshlarda axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirish gumanitar fanlar yutuqlari va kundalik empirik bilimlar xalq donishmandligi bilan to'ldirilsa, yanada samarali bo'ladi. "Endi insonga xos bo'lgan xususiyatlarga axloqiy-estetik jihatdan yondoshadigan bo'lsak, uni avvalo – aql, farosat va didning, tafakkur, tasavvur va xotiraning mavjud bo'lishi, fazilat, xislat va tarbiyaning mustahkamligi, nafosat, go'zallik va ulug'vorlikni his eta bilishi kabilar bilan belgilash mumkin.[1]"

## ASOSIY QISM

Ma'lumki ta'lim asosan maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasbhunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonining sifati, ya'ni ta'limning qay darajada berilishi, unda ishtirok etuvchi murabbiy va o'qituvchilarning ma'naviy dunyosi, bilimi, iqtidori, muallimlik iste'dodi bilan bevosita bog'liq. Bu haqda malakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday yozadi: "Tarbiyachi - ustoz bo'lishi uchun, boshqalarning aql - idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak"[2]. Bu esa ta'lim muassasalari xodimlariga katta mas'uliyat yuklaydi. Ulardan o'z bilimlarini doimiy, uzviy ravishda boyitib borish, zamon bilan hamqadam bo'lish, tashabbuskorlik, yangilikni oldindan ko'ra olish va qabul qilish, pedagogik mahoratini oshirib borish, asosiysi bola shaxsini hurmat qilish va albatta tushunishni talab etadi.

Aslida ta'lim va tarbiyani bir - biridan ajratib bo'lmaydi. Ta'lim tizimida bu ish dialektik uyg'unlikda olib boriladi. Ya'ni o'quvchi yoshlarni ma'naviy, ahloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy,

iqtisodiy, ekologik, jismoniy tarbiyalash, ta'lim berish orqali amalga oshiriladi. Ayni paytda bu bolaning yoshi, qabul qilish darajasi, dunyoqarashi va hatto ruhiy holatini hisobga olgan holda olib boriladi. Barkamol avlod tarbiyasini bugun ijtimoiy-gumanitar fanlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviyatini yuksaltirish, bilim va saviyalarini oshirish mana shu fanlarning bosh maqsadidir. Mamlakatimiz mustaqilligining qo'lga kiritilishi ta'lim va tarbiya tizimida ulkan islohotlarni amalga oshirish imkonini berdi. O'tgan yillar davomida ta'lim tizimida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim islohotlar haqida to'xtalganda, ta'lim tarbiyaga alohida urg'u berib: «Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma'rifatdir»[3], deya ta'kidladi. Chunki, yoshlarni mustaqil, erkin tafakkurini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyosdir.

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va 1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishi va hayotga tadbiiq qilinishi ushbu muhim sohada chuqur islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Mamlakatimizda ta'lim taraqqiyotining shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik hamda madaniy ehtiyojlarini ta'minlaydigan ustuvor sohasi sifatida qonunan belgilab qo'yildi.

Mazkur qonun hujjatlarida inson manfaatlari, ya'ni uning o'z ijtimoiy mohiyatini, o'zligini anglashi, muntazam rivojlanib borishi, imkoniyatlarini to'liq ishga solishi va farovon hayot kechirishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish ustuvorlik kasb etdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning "o'zbek modeli" – ya'ni o'zbek xalqi tanlagan taraqqiyot yo'lining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangidan qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va zamonaviy o'quv-laboratoriya va asbob-uskunalar bilan jihozlandi. O'quv jarayonini sifat va metodik jihatdan butunlay yangilash bo'yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimiz rahnamoligida Milliy dasturda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, respublikamizda yangi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi shakllantirildi. Uning ulkan moddiy texnik ba'zasiga asos solindi.

Endilikda hozirgi zamon talablariga javob beradigan, bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlariga moslasha oladigan, raqobatbardosh kichik mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida ishlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan aniq dasturda kiritilib, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va yetuk kadrlar ba'zasini shakllantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, akademik litsey va kasb-hunar

kollejarining deyarli barchasi mustaqillik yillarida barpo etildi yoki ta'mirdan chiqarildi. Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurtlari muhim o'rin egallamoqda[4]. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 70 dan ortiq oliy o'quv yurtlari va ularning filiallari qatorida Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti shuningdek, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti kabi xalqaro obro'-e'tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallari ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularda tahsil olayotgan yoshlarimiz esa har tomonlama yetuk ilmi, yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib tarbiyalanishida ushbu ta'lim maskanlarining o'rni beqiyos hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli maqsad va talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim mazmuni, ta'lim turlarining uzviylik va uzluksizligi, ta'lim standartlari, mutloq yangi bo'lgan, ularni zamon talablariga mos o'zgaruvchanlikni ta'minlaydigan mexanizm va tashkiliy asoslari model muallifi I.Karimov tomonidan ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiiq etildi. Shu bois Birinchi Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq IX sessiyasida so'zlagan nutqida ta'lim tizimidagi islohotlar xususida so'z yuritarkan: «Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak», deb ta'kidlaydi.

Ta'lim tizimining barcha subyektlari o'z faoliyatlarini qay darajada mukammal egasi bo'lsalarda, shu qatorda milliy qadriyatlarimizni ham mukammal tadbiiq eta olishlari zarur. O'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mashg'ulot jarayonida talabalarga ham fanning mazmunini va fanning mazmuniga bog'lagan holda o'z qadriyatlarimizdan boxabar etmoqlari lozim. Bu ikki jarayonni bir vaqtning o'zida amalga oshirish oson kechmasa-da, pedagog o'zining tajribasidan kelib chiqqan holda yondoshish talab qilinadi[5]. Globallashtirish jarayoni nafaqat ijobiy taraqqiyot mahsuli, balki shu qatori yoshlar dunyoqarashida kemtiklik, ojizlik, begonalashuv kabi illatlarni paydo bo'lishiga, milliy qadriyatlardan chekinishga, urf-odatlariga nisbatan eskilik sarqiti deb qaraydigan fikrlarni paydo bo'lishiga tasir ko'rsatadi. Shu nuqtai-nazardan yoshlarning axloqiy-estetik kamolotga erishuvi mafkuraviy immunitetni yanada mustahkamlaydi, jamiyatdagi manaviy-aqliy muhitni sog'lomlashtiradi, milliy mentalitetni boyitadi.

Mustaqillik tufayli ta'lim sohasiga joriy etilgan, ma'naviyat asoslari, odobnoma kabi fanlar yoshlar tafakkurini kengaytirishda, mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Falsafa, etika va estetika, tarix, iqtisod, adabiyot, huquq kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali olimlarimiz yoshlarga faqat ilm beribgina qolmay, ularni komil inson bo'lib yetishishlarida katta hissa qo'shib kelmoqdalar. Zero, bu fanlar orqali g'oyaviy tarbiya amalga oshiriladi, yoshlarning axloqiy, estetik, huquqiy, falsafiy, ilmiy dunyoqarashlari yuksaladi[6]. Yoshlarda

mustaqillikni qadrlash, tarixiy qahramonlarimiz, mutafakkirlarimizdan oʻrnak olish, ular bilan faxrlanish tuygʻusi shakllanadi.

Ayniqsa, bugungi maʼnaviy, gʻoyaviy, mafkuraviy tahdidlar, turli xil koʻrinishdagi axborot xurujlari jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarni chuqur oʻrgatilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, maʼnaviyat asoslari, etika, estetika kabi fanlar oldida yoshlarimizning ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga rahna solishga, maʼnaviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni boʻlgan tarixiy xotiramizning buzilishiga urinayotgan gʻarazli kuchlarga qarshi yoshlarimizda immunitetni shakllantirish vazifalari turibdi[7]. Bular talabalarda:

-mustaqil falsafiy dunyoqarash, voqea va hodisalarning mohiyatini anglash hamda baholash qobiliyatini shakllantirish;

-tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga ongli munosabatda boʻlish va ularni ravnaq toptirish yoʻlida astoyidil faoliyat olib borish koʻnikmalarini hosil qilish;

-“ommaviy madaniyat”ni niqob qilib olgan aksilmadaniyatga, milliy va insoniy qadriyatlarga zid axloqsizlikka, maʼnaviyatsizlikka undovchi vosita va usullarga, insonni haqoratlovchi, tubanlashtiruvchi mahsulotlarga va milliy oʻziga xoslikka nisbatan yashirin tahdidlarga qarshi kurashish;

-oʻtmish maʼnaviy meʼrosimizga hurmat hissini uygʻotish, milliy gʻurur, milliy iftixor tuygʻularini shakllantirish uchun zamin yaratish, milliy-maʼnaviy tarbiya va maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarga sodiq qolishni insonning barcha faoliyat turlarida ustuvor boʻlishini taʼminlash kabilardan iboratdir. Taʼlimning barcha bosqichlari uchun zamon talablariga javob beradigan yangi davlat taʼlim standartlari, oʻquv dasturlari shu jumladan, multimediali oʻquv dasturlari hamda koʻplab nusxada nashr qilinayotgan darsliklar va oʻquv qoʻllanmalari ishlab chiqilgan va joriy etilgan.

Taʼlim shakllarini va mazmunini samaradorligini oshirishga qaratilgan, inson omillari va texnik vositalardan oqilona foydalanilgan oʻqitish va oʻzlashtirishning tizimli uslubiyati boʻlgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash bugun oʻz ijobiy samaralarini bermoqda. Shu jihatdan qaraganda, bugun “inson-jamiyat” muammosini hal qilish, butun insoniyatni “insoniylashtirish”, millatni insoniyatning ulkan qadriyatiga aylantirish, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida mavjud boʻlgan muammolarni oqilona hal etishda taʼlim va tarbiyaning roli gʻoyat yuksak[8]. 2012 yilning 16-17-fevral kunlari Toshkentda boʻlib oʻtgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzuidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etgan yirik xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, jumladan, BMT, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki vakillari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Xitoy, AQSh,

Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya kabi dunyoning 48 davlati ta'lim tizimi rahbarlari, olimlar hamda mutaxassislar chiqishlarida O'zbekistonning ta'lim sohasini chuqur ilmiy asosda tubdan isloh qilish mamlakat iqtisodiyoti o'sishiga xizmat qilayotgani, jamiyatga foyda keltirayotganini alohida ta'kidlashdi. Mazkur Dastur o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash sohasida yaqin kelajakda, istiqbolda bajariladigan vazifalarnigina emas, balki mamlakatimiz taraqqiyotiga molik muhim iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni ham qamrab olganligi bilan katta ahamiyatga ega. Ushbu dasturdan kelib chiqib belgilangan vazifalarning amalga oshishi yoshlar axloqiy-estetik kamolotini yuksaltirish masalalari bilan bevosita bog'liqdir.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida, shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi ta'lim bilan uzviy, chambarchas bog'langan holda, bosqichma-bosqich olib borilib, har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifasidir. Bunda esa ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos.

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T., 1993-y.,27-28-betlar..
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild,-Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 331 b.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston. 1998. –B. 7.
4. Hoshimovich S. D. Scientific analysis of moral consciousness //Евразийский Союз Ученых. – 2019. – №. 7-3 (64). – С. 52-54.
5. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2022). Influence on Moral Consciousness in the National Cultural Space Factors. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 13, 31–34.
6. Nurmatova M. Shaxs ma'naviy kamolotida estetik va axloqiy qadriyatlar uyg'unligi muammosi. Dis. fal.fan.dok. Toshkent 2011-y. 32-bet.
7. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2023). INTERRELATIONSHIP OF CULTURAL SPACE AND PARADIGMS OF MORAL CONSCIOUSNESS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(9), 218–226.
8. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2024). CULTURAL SPACE OF CULTURAL BEING FORM OF EXISTENCE. *European Scholar Journal*, 5(2), 13-15.